

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MODIFIKATSIYANING LINGVOKULTUROLOGIK JIHATLARI.

Sh.S. Uzoqova
JDPU doktoranti

Annotation. In linguistics, the concept of modification is a universal process that indicates the meaning, sign, quality-property of an object, as well as the change and uniqueness of a different character occurring in it. However, the nature and extent of modification varies across cultures, and understanding these cross-cultural characteristics is critical to effective cross-cultural communication. In this article, it was explained that modification is a selective process, the reasons why speakers choose different structures when expressing the same idea in a discourse or a speech act, give different identifiers to objects, and choose different expressions, phrases, or adverbs when describing actions.

Key words. Modification, modifier, linguistic culture, culture, mental operation, intercultural communication.

XXI asr boshiga kelib lingvokulturologiya dunyo tilshunosligidagi yetakchi yo'nalishlardan biriga aylanib ulgurdi. Lingvokulturologiya tilni madaniyat fenomeni sifatida o'rganuvchi fan bo'lib, o'zaro aloqadorlikda bo'lgan til va madaniyat uning predmetini tashkil etadi. Jumladan, V.N.Teliya bu haqda shunday yozadi: "Lingvokulturologiya insoniy, aniqrog'i, insondagi madaniy omilni tadqiq etuvchi fandir. Bu esa shuni bildiradiki, lingvokulturologiya markazi madaniyat fenomeni bo'lgan inson to'g'risidagi antropologik paradigmaga xos bo'lgan yutuqlar majmuasidir" [3; 284]

G.G.Slishkinning fikriga ko'ra, "Lingvokulturologiya inson omiliga aniqrog'i insondagi madaniyat omiliga yo'naltirilgan. Lingvokulturologiyaning markazi madaniyat fenomenidan iborat bo'lishi inson haqidagi fanning antropologik paradigmaga tegishli hodisa ekanligidan dalolat beradi." [4; 30]

Bugungi globallashtirilgan dunyoda madaniyatlar o'rtasidagi samarali muloqot tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Madaniyatlarda sezilarli darajada farq qilishi mumkin bo'lgan muloqotning bir jihati - bu modifikatsiya, tilni o'zgartirish yoki moslashtirish jarayoni. Muvaffaqiyatli madaniyatlararo muloqot uchun modifikatsiyaning madaniyatlararo xususiyatlarini tushunish juda muhimdir. Modifikatsiyani qo'llashdagi farqlarga e'tibor qaratish orqali odamlar kuchliroq munosabatlar o'rnatishlari va turli madaniyatdagi odamlar bilan muloqot qilishda tushunmovchiliklardan qochishlari mumkin.

Dunyoda turli millatlar bor ekan, ular bilan turli tillar va turlicha madaniyatlar yashaydi. Biror millat tilini o'rganish bilangina u millat vakili bilan erkin va ravon munosabatga kirishib bo'lmaydi. Albatta, buning uchun o'sha millat madaniyatini ham o'rganish, ayniqsa, uni til bilan bog'langan holda o'rganish orqali yuqoridagi natijaga erishish mumkin.

Dunyoning lisoniy tasvirini yaratish borliqdagi narsa, belgi va hodisalarning inson tomonidan anglanishini qayd etishiga olib kelishdir. [1; 81]

Soʻz tushunchaning mavjudlik shaklidir. Agar modifikatorlar mavjud boʻlmasa narsaning u yoki bu tomoni, belgisi talqinsiz, tasvirsiz qoladi. Soʻz-modifikator boʻlmasa u bildiradigan maʼno ham yoʻq, natijada soʻzlovchi va tinglovchida oʻsha obʼekt haqida bilim yoʻq.

Demak modifikator zaruriy ifoda vositasidir. Faqat til orqaligina fikrlarimiz boshqa odamlarga yetib borishi, tushunarli boʻlishi mumkin ekan, demak modifikasiyaning yordamisiz borliq haqida toʻliq tasavvurga ega boʻlmaymiz.

Modifikatsiya selektiv jarayon boʻlar ekan, koʻp narsa, soʻzlovchiga, uning pragmatik va lingvokul'turologik xarakteristikasiga bogʻliq boʻladi. Aniqroq qilib aytadigan boʻlsak, bu jarayonda bir diskursda yoki bir nutq aktida bir fikrni ifodalashda soʻzlovchilarning turli xil strukturalarni tanlashi, predmetlarga turlicha aniqlovchilar berishi, ish-harakatlarni tasvirlashda turli ravish, soʻz birikmalari yoki ergash gaplar tanlashi sabablarini izohlab beriladi. [2; 264]

Soʻzlovchi yoki yozuvchi shaxsning moddiy dunyo haqidagi bilimlari nisbiydir, u doim rivojlanib boradi. Modifikatsiya ana shu jarayonni, inson bilimini rivojlanishini taʼminlovchi asosiy mental operatsiyadir. [5; 228]

Modifikatsiya – olamning inson ongida toʻliq inʼikos etishini taʼminlovchi mental jarayondir. Inson oʻzini qurshab olgan atrof-muhit toʻgʻrisida bilim va tasavvurga ega boʻlmay turib, faoliyatning biron bir turi bilan shugʻullana olmaydi. Bu vazifani bajarishda insonga modifikatsiya jarayoni yordam beradi, chunki dunyo, borliq bu elementlar, sodda dunyo emas. Tillardagi soʻzlar borliqdagi barcha narsa, hodisa yoki sifat xossaxususiyatlarni ifoda qilib bera olmaydi. Hatto mana shu kamchilikni bartaraf qilish uchun yaratilgan koʻpmaʼnolilik ham bu vazifani toʻla-toʻkis bajara olishga qodir emas. Inson miyasi borliqdagi barcha hodisa, narsa, belgi va h.k.larning har birini alohida nom berib uni xotirada saqlay olmaydi, inson miyasi bunga qodir emas va ikkinchi tomondan bunga ehtiyoj ham yoʻq. Modifikatsiya jarayoni tilning bilish vazifasini bajarishini taʼminlovchi yagona hamda asosiy qurol va vositadir.

Demak modifikatsiya jarayonining turli tillarda turlicha kechishi, undagi oʻxshash va farqli holatlarning bor-yoʻqligi salmogʻi, paydo boʻlish sabablari kabilarni oʻrganish turli tillar tomonidan dunyoning lisoniy tasviri qanday yaratilishi mexanizmini tushunishga olib keladi. Ingliz va oʻzbek xalqlari (aniqroq ifoda qilsak ingliz tilida soʻzlashuvchi xalqlar va oʻzbek tilida soʻzlashuvchi xalqlar) borliqni sezishi, dunyoning lisoniy tasvirini yaratishdagi umumiy va xususiy holatlarini oʻrganib chiqish esa til va tafakkur, til va ong, til va madaniyat kabi umummilliy, umumnazariy masalalarga yechim topishga ilmiy asos yaratadi.

Modifikatsiya mental jarayon ekan, u umuminsoniy harakterga ega boʻlishi kerak. Ammo irq, millatlar, etnoslar tafakkuri, ijtimoiy ongi, intellektual taraqqiyoti darajasi bir xil boʻlmaganligi, ularning dini, madaniyati va etnogenetik platformasi boshqacha boʻlganligi uchun modifikatsiya jarayonini strukturalash, rejalash va amalga oshirish strategiya va taktikalari turlicha boʻlishi tabiiydir.

Xulosa qilib aytganda, modifikatsiya tildan foydalanishning universal xususiyatidir, ammo modifikatsiyaning madaniyatlararo xususiyatlarini tushunish samarali

madaniyatlararo muloqot uchun juda muhimdir. Turli madaniyatlarda til o'zgarishining turli usullarini tan olish orqali biz tushunmovchiliklardan qochishimiz va hayotning turli qatlamlaridagi odamlar bilan mustahkam munosabatlar o'rnatishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Болдырев Н.Н. Язык как интерпретирующий фактор познания – в сб. теоретические основы языковой интерпретации. Тюмень. Изд. ТГУ, 2016, стр.19-81.
2. Goldberg A. Constructions: A Construction grammar approach to argument structure – Chicago : University of Chicago Press. 2005, p 264.
3. Телия В.Н. Русская фразеология : Семант., прагмат. и лингвокультурол. аспекты /. - Москва : Шк. "Языки рус. культуры", 1996. – 284.
4. Слишкин Г.Г. Лингвокультурный концепт как системное образование // Вестник ВГУ. Серия: Лингвистика и межкультурная коммуникация. 2004. №1.30 бет. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/lingvokulturnyy-kontsept-kak-sistemnoe-obrazovanie>.
5. Thomas E. Payne. Understanding English Grammar. Cambridge University Press, 2011. 228 p.
6. Базарова, И. И. (2022). KOREYS ADIBASI SHIN KYON SUK IJODINING O'ZIGA XOSLIGI XUSUSIDA. *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА*, 5(3).
7. Shuxratovna, B. S. (2022). KOREYS ADIBASI PAK VAN SO IJODINING O'ZIGA XOSLIGI XUSUSIDA. *Gospodarka i Innowacje.*, 24, 56-59.
8. Kenjaboevna, S. E., & Ugli, K. M. S. (2021). The phenomenon of personalization in korean (on the example of fairy tales). *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(6), 677-681
9. Эшимова, И. 2020. Особенности метафоры тропинимического происхождения. *Иностранная филология: язык, литература, образование*. 2 (75) (апр. 2020), 81–86.

